

## Paskalda ekranni grafik holatiga o'tkazish

- 1. Paskal dasturlash tili yordamida kompyuter ekranida turli chizmalar hosil qilish uchun qaysi moduldan foydalaniladi?** *Paskal dasturlash tili yordamida kompyuter ekranida turli chizmalar hosil qilish uchun GRAPH (graf) moduliga murojaat qilinadi.*
- 2. Qaysi modulga nuqta, to'g'ri chiziq, to'g'ri to'rtburchak, aylana kabi bir qancha shakillarni chizishga mo'ljallangan protsedura va funksiyalari kiritilgan?** *GRAPH (graf) moduliga.*
- 3. Paskal dasturlash tilida qanday holatda kompyuter ekrani piksellardan tashkil topadi?** *Grafik holatda kompyuter ekrani piksel deb ataluvchi mayda nuqtalardan tashkil topadi.*
- 4. Paskal dasturlash tilida kompyuter grafik holatda bo'lganda, koordinata boshi bo'lgan (0,0) nuqta ekfanning qaysi joyida joylashadi?** *Koordinata boshi bo'lgan (0,0) nuqta ekranning chap yuqori burchagida joylashadi.*
- 5. Paskal dasturlash tilida grafik holatda nuqtaning koordinatasi (X, Y). X ning eng katta qiymati nechaga teng?** *Paskal dasturlash tilida nuqtaning koordinatasi (X, Y). X ning eng katta qiymati 639 ga teng.*
- 6. Paskal dasturlash tilida grafik holatda nuqtaning koordinatasi (X, Y). Y ning eng katta qiymati nechaga teng?** *Paskal dasturlash tilida nuqtaning koordinatasi (X, Y). Y ning eng katta qiymati 479 ga teng.*
- 7. Paskal dasturlash tilida grafik holatda ekrandagi nuqtalarning soni ko'pi bilan nechtaga teng?** *Ekrandagi nuqtalar soni ko'pi bilan 640x480 ta (0..639x0..479) bo'ladi.*
- 8. Paskal dasturlash tilida ekranni grafik holatga o'tkazish uchun qaysi protseduradan foydalaniladi?** *Ekranni grafik holatga o'tkazish uchun Graph modulining Init- Graph(GD,GM,<yo'l>); protsedurasidan foydalaniladi.*
- 9. Graph(GD,GM,<yo'l>); protsedurasi uchun GD va GM butun qiymatli o'zgaruvchilarning qanday qiymatida dastur tomonidan avtomatik ravishda eng samarali grafik holat olinadi?** *GD:=0; (yoki GD:=Detect;) deb tanlansa, dastur tomonidan avtomatik ravishda eng samarali grafik holat aniqlanadi.*
- 10. Paskal dasturlash tilida grafik holatdan chiqib matn holatiga qaytish uchun qaysi protseduradan foydalaniladi?** *Grafik holatdan chiqish, ya'ni matn holatiga qaytish uchun CloseGraph protsedurasidan foydalaniladi.*
- 11. Paskal dasturlash tilida PutPixel(X,Y,Rang) protsedurasining vazifasi nima?** *PutPixel(X,Y,Rang) protsedurasi ekranning (X,Y) koordinatali nuqtasini "Rang" parametri bilan aniqlangan rangga bo'laydi.*
- 12. Paskal dasturlash tilida GetPixel(X,Y) funksiyasining vazifasi nima?** *GetPixel(X,Y) funksiyasi ekranning (X,Y) koordinatali nuqtasi qanday rangda ekanini aniqlaydi.*
- 13. Paskal dasturlash tilida GetMaxX funksiyasining vazifasi nima?** *GetMaxX funksiyasi ekranning gorizontal yo'nalishi bo'yicha maksimal koordinatasini aniqlaydi.*
- 14. Paskal dasturlash tilida GetMaxY funksiyasining vazifasi nima?** *GetMaxY funksiyasi ekranning vertikal yo'nalishi bo'yicha maksimal koordinatasini aniqlaydi.*

